O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 316.48:316.356.2

Norbiyi I.ISHONQULOVA,
O‘qituvchi, PhD, Oriental universiteti, Samarqand, O‘zbekiston
Sadriddin X.NASIMOV,
O‘qituvchi, PhD, Oriental universiteti, Samarqand, O‘zbekiston
E-mail:sadriddin nasimov1981 @gmail.com, ORCID ID: 0009-0007-9379-1719

Samarqand davlat chet tillar instituti professori F.B.Narzikulova taqrizi asosida

O‘ZBEK OILASIDAGI DESTRUKTIV NIZOLAR NAMOYON BO‘LISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI AMALIY IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola o‘zbek oilalarida yuzaga keladigan destruktiv nizolarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda oilaviy nizolarning kelib chiqish sabablari, ularning destruktiv shakllari hamda bu jarayonga ta’sir etuvchi milliy-mental, ijtimoiy va psixologik omillar o‘rganilgan. Maqolada nizolarning o‘zaro munosabatlar va oila barqarorligiga salbiy ta’siri yoritilib, ularni bartaraf etish hamda konstruktiv yechim topish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Natijalar oila psixologiyasi va konfliktologiya sohasidagi mutaxassislar, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar. destruktiv nizolar, verbal tajovuz, optimistik kayfiyatning ustunligi, pozitiv muloqotmandlik, shaxslararo empatiya, konformizm va internal lokus nazoratning kuchayishi.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ДЕСТРУКТИВНЫХ КОНФЛИКТОВ В УЗБЕКСКОЙ СЕМЬЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИХ РЕШЕНИЯ

Аннотация

Данная статья посвящена анализу социально-психологических особенностей проявления деструктивных конфликтов в узбекской семье. В исследовании изучены причины возникновения семейных конфликтов, их деструктивные формы, а также национально-ментальные, социальные и психологические факторы, влияющие на этот процесс. В статье освещается негативное влияние конфликтов на межличностные отношения и стабильность семьи, а также разработаны практические рекомендации по их преодолению и поиску конструктивных решений. Результаты исследования представляют интерес для специалистов в области психологии семьи и конфликтологии, а также широкого круга читателей.

Ключевые слова: деструктивные конфликты, вербальная агрессия, преобладание оптимистического настроения, позитивная коммуникация, межличностная эмпатия, конформизм и повышенный внутренний локус контроля.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE MANIFESTATION OF DESTRUCTIVE CONFLICTS IN THE UZBEK FAMILY AND THEIR PRACTICAL IMPLICATIONS

Annotation

This article is dedicated to the analysis of the socio-psychological characteristics of destructive conflicts in Uzbek families. The study examines the causes of family conflicts, their destructive forms, and the national-mental, social, and psychological factors influencing this process. The article highlights the negative impact of conflicts on interpersonal relationships and family stability, and develops practical recommendations for overcoming them and finding constructive solutions. The results of this research are significant for specialists in the fields of family psychology and conflictology, as well as for a wider audience.

Keywords: destructive conflicts, verbal aggression, predominance of an optimistic mood, positive communication style, interpersonal empathy, conformism, and an increased internal locus of control.

Kirish. Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan destruktiv nizolar va uning oldini olishda ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga qaratilgan ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur vazifalarni bajarishga yordam berishga yo‘naltirilgan zamonaviy tadqiqotlarda oilaviy munosabatlarda konstruktiv shaxslararo munosabatlarni saqlash va qadrlash, ularni oilani mustahkamlovchi omil sifatida qo‘llash bilan bog‘liq muammolar tadqiq etilmoqda. Ushbu tadqiqotlarga mos ravishda er-xotinlar o‘rtasida yuzaga keladigan turli xil nizolar va bu nizolar ko‘rinishlari destruktiv shaklga o‘tishni oldini olish, oila-nikoh munosabatlari to‘g‘risidagi tasavvurlarni boyitish hamda destruktiv nizolarni hal qilishning optimal yechimlarini ijtimoiy-psixologik jihatdan tadqiq etish dolzarb muammo sifatida alohida e’tibor berilmoqda.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda so‘ngi yillarda oilaviy munosabatlarda yuzaga kelayotgan destruktiv nizolar va ajrimlar soni ko‘payib bormoqda. Oilada destruktiv nizolar yechimini ilmiy asoslash maqsadida Respublika “Oila va mahallani qo‘llab quvvatlash” markazi va uning viloyat markazlaridagi hududiy bo‘linmalarining tashkil etilganligi, xotin-qizlarning qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasida qabul qilingan me’yoriy hujjat [1] soha mutaxassislari oldiga mas’uliyatli vazifalar yukladi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, jamiyat hayotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar har bir shaxs, ota-ona, mahallalarning an’analarga nisbatan yangicha yondashuvini taqozo etadi. Bunda o‘zbek oilasida destruktiv nizolar darajasining mohiyati va mazmunini, genezisini o‘rganish, atrofdagilarga ijtimoiy-psixologik ta’sirini tadqiq etish muqaddas oila-nikoh tizimining tub asoslari haqidagi ilmiy qarashlarni boyitish hamda o‘zbek oilasini hozirgi kunda

mustahkamlash va uning jamiyat oldidagi rolini oshirishga yordam beradi, yoshlarni sog‘lom oila qurish va milliy an’analarga hurmat ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Yuqoridagi bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, O‘zbek oilasida destruktiv nizolar namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish va tegishli tavsiya hamda xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Bizning tadqiqotimizda J.Farenberg, X.Zarg, R.Gampellarning “Frayburg shaxs so‘rovnomasi”, A.Bass va A.Darkilarning “Agressiya”, K.N.Tomasning “Shaxsning nizoli vaziyatlarda xulq-atvorini baholash” va V.V.Boykoning “Shaxslararo munosabatlarda destruktiv nizolarni aniqlash” so‘rovnoma-metodikalaridan foydalanildi. Olingan natijalarning ishonchlilik darajasi matematik-statistik metodlaridan Mann Uitni mezoni, Pirsonning r-korrelyatsiya koeffisiyentini qo‘llash orqali tasdiqlangan.

Nizoli xulq-atvorni bartaraf etishda ikkala tomon ham bunga bir oz vaqt sarflashi, o‘z xohish-istaklarini tushuntirishi, ehtiyojlarini ifoda etishi, bir-birini tinglashi va keyin konfliktning muqobil yechimlarini ishlab chiqishi kerak. Hamkorlik uslubi, boshqa uslublar singari, eng qiyinidir, ammo bu qiyin va ziddiyatli vaziyatlarda har ikki tomon uchun ham eng qoniqarli yechimni ishlab chiqishga imkon beradi.

Oilaviy munosabatlarda destruktiv xatti-harakatlar asosan ijtimoiy xarakterga ega. Uning paydo bo‘lishida boshqalar bilan muloqot asosiy rol o‘ynaydi. Er-xotinlarning mustaqillikka, yetakchilikka bo‘lgan intilishi ularni ko‘pincha maktabda kuchli ustunlik va destruktiv nizolarning tashqi belgilarini namoyon etadigan salbiy liderlarga qoyil qolishga majbur qiladi.

Destruktiv nizoli xulq oilada erkak va ayolning erkinliklari haddan ziyod chegaralanganda yoki unga haddan ziyod erkinliklar berilganda ham shakllanishi mumkin. Oilada emotsional inkor etilganlik holatlarida ham oilaviy munosabatlarda destruktiv xulq ko‘rinishlari bilan o‘zlariga e’tiborni qaratishga harakat qiladilar.

Albatta, o‘zini-o‘zi namoyon qila olmagan va frustratsiya holatida bo‘lgan barcha odam ham agressiv harakatlarni amalga oshiravermaydi. Bunda biologik omillar bilan bir qatorda turli ijtimoiy omillar, tarbiya va muhitning shaxs shakllanishidagi o‘rni, insonning turli destruktiv, salbiy psixologik-manipulyatsion ta’sirlarga tushish xususiyatlarini ham inobatga olish zarur. [2,3].

Tahlil va natijalar. Oilaviy munosabatlarda destruktiv nizolar hissining shakllanishi va salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi oqibatida, muammoni oldini olish, uni ilmiy jihatdan tahlil qilish, chora-tadbirlarni ishlab chiqish masalalalari dolzarb ahamiyat kasb etib boraveradi. Ayni shu o‘rinda, oilada destruktiv nizolarni psixologik diagnostika qilish ushbu faoliyatning ajralmas qismi sanaladi. [4,5].

Frayburg tomonidan ishlab chiqilgan shaxsning turli qirralarini o‘lchashga jumladan, destruktiv xulq bilan bog‘liq shaxslilik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan so‘rovnomaga ko‘ra, oilalarda asabiylashganlik shkalasi 6-6-3 farq bilan, o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan reaktiv tajovuzkorlik 6-5-2 bilan, ruhiy siqilish shkala 5-4-2, jizzakilik 7-6-4, o‘ta tajovuzkorlik shkala 6-5-2, tortinchoqlik 3-4-6, oshkoralik 7-5-4 va ta’sirchanlik 4-4-5 farqlarni keltirib chiqargan.

Oilaviy munosabatlarda destruktiv nizolar holatlari namoyon bo‘lganda psixologlar bilan maslahatlashish, ular bilan o‘tkaziladigan tarbiyaviy jarayonda o‘zlarining xatti-harakatlarini muvofiqlashtirishni talab qiladi. Shuni yodda tutish kerakki, agressiv xulq, avvalo, oilalardagi salbiy emotsional holatlar ta’sirida shakllanadi. Shuning uchun kattalar, avvalo, o‘zlaridagi salbiy emotsional holatlarni boshqara olishlari zarur. Bu bilan er-xotinga insonning o‘zini-o‘zi boshqara olishi ko‘p hollarda ijtimoiy vaziyatni yaxshilashning eng maqbul usuli ekanligiga o‘rnak ko‘rsatadilar.

Shaxslararo munosabatlarda destruktiv nizolarni o‘rganishga qaratilgan so‘rovnomaga ko‘ra, oilalarda yashirin destruktiv munosabat shkalasi 16-14-10 farq bilan, oshkora destruktiv munosabat 11-15-8 bilan, asosli negativizm shkala 17-15-11, siqilish 14-15-9 va salbiy munosabat 15-13-10 singari farqlarni qayd etgan.

Shaxsning destruktiv xulq-atvori va uning tajovuzkor xatti-harakatlarga moyilligi asosan uning individual rivojlanishining xususiyatlari bilan belgilanadi. Shaxsning destruktiv xatti-harakatining shakllanishida hal qiluvchi rolni uning bevosita ijtimoiy muhiti o‘ynaydi. Tajovuzkor xatti-harakatlarning tabiati asosan insonning yosh xususiyatlari bilan belgilanadi. Har bir yosh bosqichi o‘ziga xos rivojlanish holatiga ega va shaxsga ma’lum talablarni qo‘yadi. Yosh talablariga moslashish ko‘pincha destruktiv xatti-harakatlarning turli ko‘rinishlari bilan birga keladi.

1-jadval. Tomas so‘rovnomasi va shaxs xususiyatlari metodikasi natijalarining o‘zaro aloqasi (K.Pirsonning r-korrelyatsiya mezoni bo‘yicha)

Shkalalar	Raqobatlilik	Hamkorlik	Kelishuv-chanlik	Tortishuv-dan qochish	Moslashuv-chanlik
Asabiylashganlik	0,584**		0,582**		
Reaktiv tajovuzkorlik	-0,427*		0,547**	-0,425*	0,412*
Ruhiy siqilish	0,417*	0,440*		-0,556**	0,413*
Jizzakilik	0,435*	0,416*	0,586**		0,424*
O‘ta tajovuzkorlik	0,438*	-0,568**	0,562**	0,405*	
Tortinchoqlik			0,418*	-0,557**	0,427*
Oshkoralik	-0,632**		0,599**	0,460*	
Ta’sirchanlik	0,470*	0,577**		-0,416*	

Izoh: * – $p \le 0,05$; ** – $p \le 0,01$; *** – $p \le 0,001$.

Berilgan natijalardan ko‘rinadiki, Tomas tomonidan ishlab chiqilgan nizoli vaziyatlarda shaxs xulq-atvorini baholash hamda shaxs xususiyatlari so‘rovnomalari bo‘yicha natijalaridan shuni kuzatish mumkinki, asabiylashganlik shkalasi bilan raqobatlilik (0,584**) va kelishuvchanlik (0,582**) shkalalari, reaktiv tajovuzkorlik shkalasi raqobatlilik (0,427*), kelishuvchanlik (0,547**), tortishuvdan qochish (0,425*) va kelishuvchanlik (0,412*) shkalalari, ruhiy siqilish shkalasi bilan raqobatlilik (0,417*), hamkorlik (0,440*), tortishuvdan qochish (0,556**) va moslashuvchanlik (0,413*) shkalalari, jizzakilik shkalasi bilan raqobatlilik (0,435*), hamkorlik (0,416*), kelishuvchanlik (0,586**) va moslashuvchanlik (0,424*) shkalalari, o‘ta tajovuzkorlik shkalasi bilan, raqobatlilik (0,438*), hamkorlik (0,568**), kelishuvchanlik (0,562**) va tortishuvdan qochish (0,405*) shkalalari, tortinchoqlik shkalasi bilan, kelishuvchanlik (0,418*), tortishuvdan qochish (0,557**) va moslashuvchanlik (0,427*) shkalalari, oshkoralik shkalasi bilan, raqobatlilik (0,632**), kelishuvchanlik (0,599**) va tortishuvdan qochish (0,460*) shkalalari, ta’sirchanlik shkalasi bilan, raqobatlilik (0,470*), hamkorlik (0,577**) va tortishuvdan qochish (0,416*) shkalalari bilan musbat va manfiy ravishda korrelyatsion bog‘lanishda ekani keliv chiqdi.

Destruktiv nizoli vaziyatda oilaviy munosabatlar destruktiv xulq-atvorni keltirib chiqarishi mumkin. Oilaviy munosabatlarni hal qilishda nizolardan qochmaslik talab qilinadi. Qochish odatda konfliktli vaziyatda o‘zini tutish

uslubi sifatida noxush holatlarga tushmaslikka, ziddiyatlarni keltirib chiqarmaydigan, hatto bu tortishuvlar hayotiy konfliktlarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan taqdirda ham kelishmovchiliklardan uzoqroq yuradigan odamlar tomonidan tanlanadi. Ammo shu o‘rinda asosiy harakatlar ziddiyatning namoyon bo‘lishini yo‘qotishga qaratilgan bo‘lib, ziddiyat asosidagi konfliktning ildizi shunchaki e’tibordan chetda qoladi. Natijada “tinchlik va osoyishtalik” mavjud bo‘lgan taqdirda ham konflikt hali-hanuz saqlanib qolgan bo‘ladi.

2-jadval. Tajovuzkorlik va shaxslararo munosabatlarda destruktiv nizo so‘rovnomalari natijalarining o‘zaro aloqasi (K.Pirsonning r-korrelyatsiya mezoni bo‘yicha)

Shkalalar	Yashirin destruktiv munosabat	Oshkora destruktiv munosabat	Asosli negativizm	Siqilish	Salbiy munosabat
Jismoniy tajovuz	-0,480*		0,425*	0,522**	0,472*
Verbal tajovuz	0,479*	0,486*			-0,485*
Bilvosita tajovuz		0,447*	-0,563**	0,528**	-0,556**
Negativizm	0,479*	0,459*		0,545**	0,449*
Tajanglik	0,549**	0,426*	-0,563**		
Shubhalanuvchanlik		-0,559**			0,568**
Xafagarchilik		0,425*	-0,422*		0,547**
Aybdorlik		0,406*		0,548**	

Izoh: * – $p \le 0,05$; ** – $p \le 0,01$; *** – $p \le 0,001$.

Tadqiqotdan olingan natijalarga asosan, Oilaviy munosabatlarda destruktiv nizoli xulq-atvor va uni bartaraf qilishning psixologik xususiyatlari bo‘yicha natijalar shuni ko‘rsatadiki, tajovuzkorlik va shaxslararo munosabatlarda destruktiv nizo so‘rovnomalari sinaluvchilarda jismoniy tajovuz shkalasi bilan, yashirin destruktiv munosabat (0,480*), asosli negativizm (0,425*), siqilish (0,522**) va salbiy munosabat (0,472*) shkalalari, verbal tajovuz shkalasi bilan, yashirin destruktiv munosabat (0,479*), oshkora destruktiv munosabat (0,486*) va salbiy munosabat (0,485*) shkalalari, bilvosita tajovuz shkalasi bilan, oshkora destruktiv munosabat (0,447*), asosli negativizm (0,563**), siqilish (0,528**) va salbiy munosabat (0,556**) shkalasi, negativizm shkalasi bilan yashirin destruktiv munosabat (0,479*), oshkora destruktiv munosabat (0,459*), siqilish (0,545**) va salbiy munosabat (0,449*) shkalalari, tajanglik shkalasi bilan, yashirin destruktiv munosabat (0,549**), oshkora destruktiv munosabat (0,426*) va asosli negativizm (0,563**) shkalalari, shubhalanuvchanlik shkalasi bilan, oshkora destruktiv munosabat (0,559**) va salbiy munosabat (0,568**) shkalalari, xafagarchilik shkalasi bilan, oshkora destruktiv munosabat (0,425*), asosli negativzim (0,422*) va salbiy munosabat (0,547**) shkalalari, aybdorlik shkalasi bilan oshkora destruktiv munosabat (0,406*) va siqilish (0,548**) shkalalari bilan aloqaga kirishgan.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbek oilasidagi destruktiv nizolar namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bo‘yicha tadqiqot ishi natijalaridan kelib chiqqan holda, quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarni keltirib o‘tirishimiz o‘rinli sanaladi:

O‘zbek oilasida destruktiv nizolar namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga shaxsning destruktiv xulq-atvor darajasi, nizoli vaziyatlarda shaxs xulq-atvorini baholash, tajovuzkorlik hissi, shaxs xususiyatlari va shaxslararo munosabatlarda destruktiv nizolarni baholash singari ijtimoiy-psixologik xususiyatlar ta’sir qilishi hamda oilaviy munosabatlarda destruktiv nizolar namoyon bo‘lishida tajovuzkorlik faktori asosiy indikatorlarni tashkil qilishi ma’lum bo‘ldi.

Oilaviy munosabatlarda destruktiv nizolar namoyon bo‘lishida erkaklar va ayollar o‘rtasidagi qiyosiy tafovutlarni Man-Uitnining U-mezoniga ko‘ra, ahamiyatli farqlar jismoniy tajovuz erkaklarda, verbal tajovuz va xafagarchilik ayyollarda yuqoriroq nisbatlar bilan kuzatilgan. Bilvosita tajovuz, negativizm, shubhalanuvchanlik va aybdorlik shkalalarida statistik farqlar qayd etilmadi.

Shaxsning nizoli vaziyatlarda xulq-atvorini baholash so‘rovnomasiga ko‘ra, raqobatlilik, hamkorlik, kelishuvchanlik va moslashuvchanlik shkalalari erkaklarda yuqoriroq qayd etilganligi aniqlandi. Mazkur shkalalar ayollarda pastroq namoyon bo‘lgan.

Destruktiv nizolar shakllanishida asabiylashganlik, o‘ta tajovuzkorlik, ruhiy siqilish, jismoniy va verbal tajovuz, tajanglik, xafagarchilik, tajanglik, tortinchoqlik, ta’sirchanlik, oshkora destruktiv munosabat, o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan tajovuzkorlik va salbiy munosabatlar kabi psixologik xususiyatlar o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatishi aniqlandi.

Destruktiv nizolar hissi erkak va ayollarda tadqiq etilib, ularda bu psixologik sifatning oldini olishida yashirin va oshkora destruktiv munosabat, siqilish, jismoniy va verbal tajovuz, shubhalanuvchanlik, reaktiv tajovuzkorlik, jizzakilik hamda ta’sirchanlik kabi ijtimoiy-psixologik xususiyatlar kuchli darajada ta’sirini ko‘rsatishi qayd etildi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikash Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi «Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘tisida» PF-5325-son Farmoni.
2. Абрамова А.А. Агрессивность при депрессивных расстройствах: Дис.канд. психол. наук. - М., 2005. – С.69.
3. Muminova D.R. Oila psixologiyasi: Er-xotin baxtli bo'lish siri 2006. B – 32.
4. Ishonkulova N.I. Oilada destruktiv nizolar namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari // Tamaddun nuri. Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma’rifiy, adabiy-badiiy jurnal. 2024-yil, 7-son (58). – B. 46-48.
5. Ishonkulova N.I. Oilalarda destruktiv nizolarni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-psixologik determinantlar // Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi. Ilmiy-amaliy jurnal. – № 5(9) 2024. – B. 28-32.
6. Ishonkulova N.I. Oilaviy munosabatlarda destruktiv nizolarni o‘rganishning nazariy asoslari. // Inter education & Global study buxoro. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024-yil, 4(2)-son. – B. 405-411.